



NEW UZBEKISTAN – SOCIAL STATE (2017–2025)

Ogabek Akhmedov

*Master's Student at the University of Exact and Social Sciences
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, social state, social protection, human interests, social reforms, public welfare, stability, equitable distribution, social justice.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the formation of the principles of a social state in the context of New Uzbekistan and their role in national policy. The study highlights the processes of prioritizing human interests, strengthening the social protection system, and improving mechanisms of equitable distribution. It also examines the essence of social reforms and the implementation of the “For the Dignity of Man” concept within the system of public administration. The concept of a social state is explored in close connection with national traditions and civil society institutions.

YANGI O‘ZBEKITON - ITIMOY DAVLAT (2017-2025-yillar)

Og‘abek Axmedov

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti
Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy davlat, ijtimoiy himoya, inson manfaatlarini, ijtimoiy islohotlar, xalq farovonligi, barqarorlik, adolatli taqsimot, ijtimoiy adolat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat tamoyillarining shakllanishi va ularning milliy siyosatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish hamda adolatli taqsimot mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, “inson qadri uchun” g‘oyasining davlat boshqaruvidagi ifodasi va ijtimoiy islohotlarning mazmuni tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy davlat konsepsiyasi milliy

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН – СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО (2017-2025)**Огабек Ахмедов***Магистрант**Университета точных и социальных наук**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Новая	Аннотация: В данной статье
Узбекистан, социальное государство, социальная защита, интересы человека, социальные реформы, благосостояние населения, стабильность, справедливое распределение, социальная справедливость.	анализируется формирование принципов социального государства в условиях Нового Узбекистана и их роль в национальной политике. В исследовании освещаются процессы приоритета интересов человека, укрепления системы социальной защиты и совершенствования механизмов справедливого распределения. Также рассматривается сущность социальных реформ и воплощение идеи «Во имя человеческого достоинства» в системе государственного управления. Концепция социального государства изучается во взаимосвязи с национальными традициями и институтами гражданского общества.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqiyosida ijtimoiy himoya masalasi eng dolzarb masalardan biri sifatida ko'rilmogda, chunki kundand-kunga ortib borayotgan siyosiy beqarorlik, urishlar, iqlim o'zgarishi kabi omillar aholi turmush darajasining keskin yomonlashuviga sabab bo'lmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkilotining (ILO) "Jahon Ijtimoiy Himoya Hisobot 2023-2024" [1, ILO, 2023-24] ma'lum qilishicha jahon aholisi populyatsiyasining 2023-yilda 52,4 foizi, kamida bitta ijtimoiy himoya dasturi bilan qamrab olingan. Qolgan 47.6 foizi yani taxminan 3,8 milliard kishi, ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lib qolmoqda. Dunyo mamlakatlari ijtimoiy himoyaga sog'liqni saqlash bilan birgalikda yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o'rtacha 19,3 foizini sarflashmoqda. 2023-yildan bo'yon global ijtimoiy himoya tizimi qamrovi oshib bormoqda, ammo mintaqaviy va daromad guruhi bo'yicha tafovutlar juda katta. Past daromadli mamlakatlar aholisi orasida ijtimoiy himoya yetarli emas. Ushbu holat ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta'minlash masalasida muhim chaqiriq bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi jamiyatning eng nochor qatlamlarini tashkil etadi. Ular moddiy qashshoqlik, sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy kamsitish kabi muammolarga duch

kelishadi. Jahon miqyosida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi soni tobora ortib bormoqda va bu global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish takomillashtirish jamiyatning ijtimoiy adolat va barqarorligini va ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Shuning uchun, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga yordam ko'rsatish har qanday davlat va jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Shu qatorda O'zbekistonda ham ijtimoiy himoya masalasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy davlat prinsiplarini mustahkamlash va aholining turmush darajasini oshirish borasida sezilarli islohotlarni amalga oshirdi. Xususan 2023-yilning 30-aprel kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respubliasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga[2] "ijtimoiy davlat" tushunchasining kiritilishi bu sohaga e'tiborning yorqin misolidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" konsepsiyasi ilgari surilib, aholining turli qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam tizimini raqamlashtirish va adolatli taqsimot mexanizmlarini joriy etish yo'lida muhim qadamlar qo'yildi.

Ijtimoiy davlat tushunchasi nafaqat fuqarolarning hayotiy barqarorligini ta'minlash, balki ularning ijtimoiy himoyasi, adolatli taqsimot va teng imkoniyatlar yaratish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini kafolatlashni nazarda tutadi. 2017–2025-yillar davrida mamlakatda qabul qilingan ijtimoiy siyosat va qonunchilik tashabbuslari ushbu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu davrda davlat siyosatining markazida inson manfaatlari va uning huquqlarini himoya qilish turdi. Ijtimoiy himoya tizimi kengaytirildi, kambag'allikni kamaytirish, nogironlar, yolg'iz qarovsiz qariyalar va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ijtimoiy sohada raqamli texnologiyalar va monitoring mexanizmlari joriy etilib, resurslarning samarali taqsimlanishi va shaffoflik ta'minlandi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. 2017–2025-yillar davrida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilgan tub islohotlar mamlakatni ijtimoiy davlat sifatida shakllantirish jarayonida yangi bosqichni boshlab berdi. Shu bois, mazkur davrni tahlil etishda Prezident Sh.M. Mirziyoyevning asarlari, nutqlari hamda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalari ilmiy izlanishlar uchun eng muhim dastlabki manbalar sirasiga kiradi. Davlat rahbarining ijtimoiy siyosatga oid qarashlari, "Inson qadri uchun", "Yangi O'zbekiston strategiyasi", "Harakatlar strategiyasi" singari konseptual hujjatlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, bu manbalar mamlakatda ijtimoiy himoya, bandlik va adolatli taqsimot tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosatini o'rganishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda F.J. Yormatovning[3] janubiy viloyatlar misolida olib borgan tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Muallif o'z ishida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida aholining bandligini ta'minlash, mahalla institutining roli, yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash masalalarini chuqur tahlil qilgan. T.D. Mamatqobilov[4] esa O'zbekistonning ijtimoiy himoya siyosatini genezisi, evolyutsiyasi va amaliyot nuqtayi nazaridan tahlil qilib, tizimda mavjud o'zgarishlarning siyosiy-huquqiy asoslarini yoritgan.

Shuningdek, Sh.M. Sodiqova[5], X.X. Abdurahmonov[6], M.A. Usmonova[7], A.B. Irmatova[8], F.O. Kamilov[9], M.X. Shamsiyeva[10], T.K. Narbayeva[11] va Z.X. Zaitovlarning[12] tadqiqotlarida keksalar, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari keng yoritilgan. B.B. Baxtiyorov[13], D.B. Baxromova[14], M.K. Abdullayeva[15], L.N. Xaliqova[16] va S.Yu. Yo'qubovalarning[17] ishlarida ijtimoiy jarayonlarning iqtisodiy omillari, ularning bandlik va daromad siyosatiga ta'siri masalalari tahlil etilgan. D.K. Ahmedov[18] hamda Sh.M. G'oziyev[19] esa ijtimoiy himoyaning huquqiy mexanizmlarini chuqur o'rgangan bo'lib, ular ijtimoiy siyosatni davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari bilan bog'laydi.

Mazkur tadqiqotlar bilan bir qatorda, xalqaro tashkilotlar – Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), BMT, YUNISEF va Jahon Banki tomonidan e'lon qilingan hisobot va tahlillar O'zbekiston tajribasini global standartlar bilan taqqoslashda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ularning 2017–2024-yillar oralig'idagi ijtimoiy himoya, bandlik va kambag'allikni qisqartirishga oid ma'lumotlari milliy siyosatning samaradorligini baholashga, shuningdek, "Yangi O'zbekiston" sharoitida ijtimoiy davlat konsepsiyasining shakllanish jarayonini ilmiy asosda tahlil qilishga zamin yaratadi.

Muhokama va natijalar. Ijtimoiy himoya – bu davlat va jamoat institutlari tomonidan aholi, xususan ijtimoiy zaif qatlamlarni, kutilmagan iqtisodiy, ijtimoiy yoki tabiiy hodisalar natijasida yuzaga keladigan noxush vaziyatlardan himoya qilish, ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish va farovonligini barqaror ta'minlashga qaratilgan tizimli, huquqiy va institutsional choralar majmui.

Uning mohiyati shundaki, ijtimoiy himoya nafaqat moddiy yordam, balki aholining bandligi, sog'ligi, ta'limi, yashash sharoiti va ijtimoiy integratsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirish, fuqarolarning hayot sifatini oshirish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ijtimoiy holat asosan qiyin, noaniq va iqtisodiy-ijtimoiy transformatsiyaga bog'liq edi. Aholining aksariyati inflyatsiya, ish o'rinlari kamayishi, ijtimoiy yordamning yetishmasligi va umumiy noaniqlik tufayli qiyin vaziyatda yashashga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, davlat tomonidan asos solinayotgan ijtimoiy himoya mexanizmlari va yangi siyosiy institutlar kelajak uchun asos yaratdi. 2000-yillardan boshlab

davlat ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirib, pensiya, nafaqa va kambag'al oilalarga yordam dasturlarini joriy etdi. Shu davrda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida infratuzilma yaxshilandi, aholining yashash darajasi sekin-asta ko'tarila boshladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilining biri ham aynan kuchli ijtimoiy siyosat yuritishni nazarda tutar edi. Aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan 2000-yil "Sog'lom avlod yili", 2004-yilda "Mehr-muruvvat yili", 2005-yil "Sihat-salomatlik yili", 2007-yil "Ijtimoiy himoya yili" 2014-yil "Sog'lom bola yili", 2015-yil "Keksalarni e'zozlash yili" kabi yillik davlat dasturlari qabul qilindi.

2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish davri boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Shu davrdan e'tiboran mamlakatni ijtimoiy davlat sifatida shakllantirish g'oyasi davlat siyosatining markaziy yo'nalishiga aylandi.

"Harakatlar strategiyasi" (2017–2021) hamda "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026) ijtimoiy sohani modernizatsiya qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Bu hujjatlar orqali aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni oshirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va uy-joy siyosatini takomillashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi. Sh.M. Mirziyoyev o'z chiqishlarida "har bir islohot markazida inson qadri turishi lozim" degan tamoyilni ilgari surib, davlat siyosatini inson manfaatlariga yo'naltirilgan tizimga aylantirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" konsepsiyasi ilgari surilib, aholining turli qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam tizimini raqamlashtirish va adolatli taqsimot mexanizmlarini joriy etish yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. 2021-yildan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"[21]ning joriy etilishi, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tizimli shakllari joriy etildi. nafaqa va moddiy yordam turlarining raqamli platforma orqali boshqarilishi bu yo'nalishdagi samaradorlikni oshirdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2022-yilning 25-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi tasdiqlash to'g'risida PF-175-son[22] farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi qabul qilinib, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan davrda ustuvor yo'nalishlarni va kompleks chora-tadbirlarni belgilab berildi. 2023–2030-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining Ijtimoiy himoya strategiyasi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va fuqarolarning munosib hayot darajasini ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli dasturiy hujjat sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish, aholining farovonligini ta‘minlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash yo‘lida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek har bir islohat “inson qadri” uchun degan tamoyil real hayotda o‘z ifodasini topmoqda. Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi asosida ijtimoiy himoya tizimi yanada takomillashib, aholining har bir qatlamiga g‘amxo‘rlik davlat siyosatining bosh yo‘nalishiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Labour Organization (ILO): World Social Protection Report 2023–24.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
3. Ёрматов Ф.Ж. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизими: ҳолати, жараёни, ривожланиш истиқболлари (1991-2010 йиллар. Жанубий вилоятлар мисолида): тарих фан.ном. ...дис. – Тошкент, 2010.
4. Маматқобилов Т.Д. Мустақил Ўзбекистоннинг ижтимоий ҳимоя сиёсати: генезиси, эволюцияси ва амалиёти: сиёсий. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2006.
5. Содикова Ш.М. Жамиятни модернизациялашжараёнида кексаларни ижтимоий ҳимоялашнинг социологик таҳлили: социология фанлари д-ри ... дис. - Тошкент, 2016.
6. Абдураманов.Х.Х. Ўзбекистонда қарияларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг демографик асослари: иқтисод фан. ном ... дис. - Тошкент, 2007.
7. Усмонова М.А. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий ҳимояни ташкил этишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари: юридик фан. доктори. ... дис. - Тошкент, 2006.
8. Ирматова А.Б. Ишсиз аёлларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш (Тошкент вилояти мисолида): иқтисод фан. ном ... дис. - Тошкент, 2010.
9. Комилов Ф.О. Ўзбекистонда ногиронлиги бўлган болаларни ижтимоий ҳимоя қилишни институционал такомиллаштириш: : социология фан.бўй.фал. д-ри ... дис. - Тошкент, 2022.
10. Шамсиева М.Х. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишда давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотларнинг ўрни (1991-2010): тарих фан. бўй.фал. д-ри ...дис. – Тошкент, 2020.
11. Нарбаева Т.К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели: социология фанлари д-ри ... дис. - Тошкент, 2020.

12. Зайтов Е.Х. Ўзбекистонда институционал муассаса битирувчиларини ижтимоий химоялаш тизимини такомиллаштириш: социология фан.бўй.фал. д-ри ... дис. - Тошкент, 2020.

13. Бахтиёрв Б.Б. Аҳолини ижтимоий химоя қилиш тизимининг иқтисодий механизмининг такомиллаштириш йўналишлари: иқтисод. фан.бўй.фал. д-ри. ... дис. - Тошкент, 2020.

14. Бахромова Д.Б. Аҳолини ижтимоий химоялашнинг асосий йўналишларини иқтисодий-статистик таҳлили (Қашқадарё вилояти мисолида): иқтисод. фан.бўй.фал. д-ри. ... дис. - Тошкент, 2018.

15. Абдуллаева М.К. Ижтимоий химоя ва уни тартибга солишни такомиллаштириш йўллари: иқтисод фан. ном ... дис. - Тошкент, 2008.

16. Халкова Л.Н. Ижтимоий химоя социал-иқтисодий муносабат сифатида: иқтисод фан. ном ... дис. - Тошкент, 2000.

17. Ёқубова С.Ю. Бозор муносабатларига ўтиш шароитида аҳолини ижтимоий химоялаш (Ўзбекистон Республикаси мисолида): иқтисод фан. ном ... дис. - Тошкент, 1994.

18. Ахмедов Д.К. Ўзбекистонда давлат ижтимоий химояси: ҳуқуқий асослари ва такомиллаштириш муаммолари: юридик фан. д-ри. ... дис. - Тошкент, 2007.

19. Ғозиев Ш.М. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ижтимоий химоя фаолиятини такомиллаштириш муаммолари: юридик фан.ном. ... дис. - Тошкент, 2009.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.03.2021 yildagi 122-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 30.10.2024-y., 09/24/714/0865-son

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.07.2022 yildagi PF-175-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son